

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUNYOD ETILGAN
BOG`-SAROYLAR

Mo'minova Gulchehrabonu

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Anatatsiya: *Amir Temur va temuriylar davridagi bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini o'rghanishda ular tomonidan bunyod etilgan bog`-saroylarning ahamiyati.*

Kalit so'zlar: *Rui Gonzales de Klavixo, Bog'i Nav, chorborg'lar, Dilikiya, Bog'I Jahonkusho, Cho'pon ota, Bog'i Naqshi Jahon, „Boburnoma”, Bog'i Bihisht, sun'iy tepalik, M.E.Masson.*

Amir Temur qayerga borsa o'sha yerni obod qilishga har vaqt harakat qilgan. Aytish mumkinki, Samarqanddagi bunyodkorlik ishlari sabab Samarqand yer yuzining sayqali degan nomga sazovor bo'lgan.

Sohibqiron tomonidan bunyod etilgan bog`lar katta qiziqishlar bilan o'rghanilmoqda. Shu sababdan ham arxeolog va tarixchi olimlar o'z tadqiqot ishlarini bugungi kungacha davom ettirmoqda. Ya.G`ulomov , T.Shirinov, U.Alimovlarning ilmiy izlanishlari orqali bog`larning soni 12 ta bo'lganligi aniqlangan.

Bu vaqtida Samarqandda bunyod etilgan bog`lar tuzilishiga ko`ra 2 turga bo`lingan:

1. Chorbog`lar – geometrik shaklda bo`lib, har tomoni tahminan 1 km masofaga cho`zilgan. Bunday bog`larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan;

2. Tuzilishi geometrik shaklda bo`lmagan tabiiy daraxtzor va chakalakzorlar bag`rida bunyod etilgan. Bu kabi bog`lar asosan ov maqsadida bunyod etilgan. Rui Gonzales de Klavixoning ma'lumotlariga qaraganda ushbu bog`larda limon hamda sitrus mevalaridan boshqa barcha mevalar bo'lgan.

Ichki va tashqi ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda hashamatli bo'lgan bog`-saroylar bunyod etish har ehtimolga qarshi u yerda mudofaa choralar ko'rinishini talab etgan. Bog`lar zarur bo'lganda harbiy lager, mustahkam saroylar esa mudofaa inshootlari vazifasini ham bajarishi lozim edi. Bu bog`lar o`rtasida qurilgan saroylar o`rtacha 2-3 qavatli bo`lib, kengligi 25 metrgacha bo'lgan chuqur xandaqlar bilan o`ralgan.

Amir Temur bunyod etgan ettirgan bog`lar bugungi kungacha saqlanib qolmaganligi tufayli bularni faqat arxealogik izlanishlar orqaligina o'rghanish mumkin. Shu sababdan bog`lardagi dastlabki izlab topish va tadqiq qilish ishlari 1967-yilda tashkil etilgan.

Dastlab bog`larning arxealogik jihatdan qaysi hududlarda joylashganligini bilish juda muhimdir.

Birinchi bunyod etilgan bog`lardan biri bu Bog'i Naqshi Jahondir. Bu bog` haqida yetarlicha ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ushbu bog` haqida asosiy ma'lumotlar „Boburnoma”da keltiriladi.

V.L.Vyatkin izlanishlari orqali Cho'pon ota tog`ining janubiy etaklari XV asrda Naqshi Jahon deya nomlanganligini aniqladi. Naqshi Jahon Ulug`bek rasadxonasidan I kmlar sharqda.

Cho`pon ota tog`ining janubiy etagida joylashgan. Bu bog` XIV asrning 70-yillarida bunyod etilgan.

Keyingi bog`-saroy 1378-yilda Amir Temur buyrug`iga binoan 12 yoshlik rafiqasi Tuman oqo uchun bunyod etilgan Bog`i Bihishtdir. Bu bog`ning joylashgan hududi turli adabiyotlarda turlicha beriladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu bog`ni Samarqandning quyi qismida deb ko`rsatadi. M.E.Masson esa o`z tekshirishlariga tayangan holda bog`ning o`rnini Bog`i Shamoldan janubi-g`arbda deb beradi. Manbalardagi ma`lumotlarga qaraganda, bog`ni bunyod etishda Tabrizning oq va toza marmaridan foydalanilgan.

Bog`i Amirkhana Shohrux haqida ma`lumotlar juda kam. Ba`zi manbalarga qaraganda u Samarqandning g`arb tomonidagi darvozaga yaqin joylashgan. To`rtburchak shaklidagi bu tepalik sharqdan g`arba qarab cho`zilgan (76x44) bo`lib, balandligi 4, eni 6 metr kenglikdagi xandaq bilan o`ralgan. Bog` 1394-yilda Shohruxnning Kavkazdan qaytishi sharafiga bunyod etilgan.

Bog`i Bo`lduning joylashgan hududi „Boburnoma”da Samarqandning sharqiy qismida deb beriladi. V.L. Vyatkin uni Dilkushoga yaqin Qo`rg`oncha qishlog`ida joylashganligini aniqlagan. Bog` Dilkushodan 1.5 km narida joylashgan. Arxeologik qazishma ishlari orqali g`isht parchalari , har xil koshin qoldiqlari topilgan.

Ma`lummotlarga ko`ra saroy 2 qavatlari qilib qurilgan. To`rt tomonidan hashamatli eshiklar qo`yliganligi ma`lumdir. „Bo`ldu” so`zini olimlar manbalarda badavlat so`ziga sinonim ekanligini bildirishadi.

Dilkusho bog`i haqidagi ma`lumotlar nisbatan saqlanib qolganligi bilan ajralib turadi. Bog`ni bunyod etish uchun 1397-yilda Amir Temur tomonidan buyruq berilgan. Bobur bergen ma`lumotlarga ko`ra bu bog`ning har ikki yoniga terak ekilgan.

Bugungi kunda ushbu bog`ning o`rni Samarqanddan 5 kmlar sharqda Panjikent yo`lining o`ng tomonida joylashgan. Dilkusho so`zining ma`nosi dilni shodlantiruvchi degan ma`noni anglatadi. Shuning uchun ham Sharafiddin Ali Yazdiy bu bog`ni „ Movarounnahrning eng yaxshi bog`laridan” deb ta`riflagan.

Bog`i Nav haqidagi ma`lumotlarni asosan o`sha davr vaqf hujjatlari orqali olishimiz mumkin. Bu bog`ga shaharning g`arb tomonidagi darvozasi orqali boorish mumkin bo`lgan. Bu bog` to`rtburchak shaklida bo`lib, devorlari juda hashamdar hamda baland va har bir burchagida aylana shaklidagi minorasi bo`lgan. Bog`ning markaziy qismida qasr va suv havzasi joylashgan. Ushbu suv havzasi bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Bu bog` boshqa bog`larga nisbattan keyin qurilgan. Klavixo o`z asarid ushbu bog`ni Bog`i Bagino deb nomlagan.

Klavixoning bergen ma`lumotlari qaraganda ushbu bog`ning to`rt tomonidan baland devor bilan o`ralgan. Devorning har bir burchagida tikka dumaloq minoralar bor. Bog`ning baland minoralariga ham, devoriga ham sayqal berilgan. Bog`ning markaziy qismida baland minora qad rostlagan bo`lib, oldida katta hovuz joylashgan. Unga oltin hamda lojuvard bo`yoqlar bilan ishlov berilgan.

Bog`i Zag`on to`g`risida ma`lumot bergen shaxslar uning Samarqandning sharqiy qismida ekanligini aytishadi. Temuriylar davridagi biror manbada bu bog` haqidagi ma`lumotlar uchramaydi. Mahalliy aholi bu hududni qarg`alar bog`i deya atashadi. Bunga sabab yozin qishin ushbu hududda qarg`alar arimaydi.

Bog`i Davlatobod ba`zi ma`lumotlarga qaraganda sovg`a tariqasida bunyod etilgan. Klavixoning asarida ushbu bog` Dilikiya nomi bilan nomlanadi. Bu bog`-saroy Samarqand shahridan 13 km janubda, Termizga ketish yo`lining chap qanotiga joylashgan. 1936-yilda I.A.Suxarev Davlatobod bog`ining anniq joylashgan hududini aniqladi.

Davlatobod bog`ining atrofida keng dalalar bo`lib, ularda anhor va talay ariqlar oqib turadi. Shu sababdan ham unga Davlatobod ya`ni baxt-saodat qarorgohi degan nisbat berilgan.

Bog`i Chinorning qurib bitkazilgan vaqt Klavixo ma`lumotiga ko`ra XV asrning boshlanishi yillariga to`g`ri keladi. XIX asrning o`rtalaridagi sayyohlarning yozishicha u shaharning janubiy qismida bo`lib, ikki chetiga teraklar o`tqazilgan yo`laklari bilan mashhur bo`lgan. Bog`ning o`rtasida sun`iy tepalik bo`lib, uning ustida tarxi xochsimon shaklda bo`lgan saroy qad ko`targan. M.E.Masson olib borgan tekshirishlarga qaraganda u janub tomonda – Qizilqo`rg`on degan joyda joylashganligini aytadi. Ammo boshqa tekshiruv natijalari ushbu bog`ning biror asosli qoldig`ini Qizilqo`rg`ondan topa olishmaydi.

Bog`i Baland bog`i haqida ham qolgan bog`-saroylardek ma`lumotlar juda sayoz. V.L.Vyatkin bu bog`ni Zarafshon daryosining yoqasida ekanligini, bo`gning bir tarafı daryo qirg`ogiga tutash bo`lganligini yozadi. Abu Tohir Xo`janing yozishicha u Samarqandning shimal tomonida joylashgan. Ushbu bog` xarobalarini XX asrda ham ko`rish mumkin edi. Ushbu bog`ga Baland nisbatining berilishi uchun asosiy sabab qolgan bog`larga nisbattan yuqoriroqda joylashganligi uchun.

Ushbu bog`lar haqidagi bilimlar bizga ushbu davrdagi me`morchilik san`ati, bog`dorchilik haqidagi umumiy tushunchalarni anglashimiz uchun muhim turtki hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Rui Gonsales de Klavixo „ Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” Toshkent- „O`zbekiston”-2010.

2. O`Alimov „O`rta asrlarda Movarounnahrda bog`chilik xo`jaligi tarixi”-Toshkent-1984

3. Shuhrat Qulmatov, Amriddin Berdimurodov „ Samarqand yodgorliklari” -Samarqand-2017

4.,„История Самарканда”, Том I, Ташкент, 1969